



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

9(17)

2024



E-ISSN 2181-379-5

9 772181 379008



ISSN 2181-3787

9 772181 378001



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№9(17) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG'ATNI O'RGATISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya masalalariga keng ko'lamda e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. axloqiy xususiyatlarni tarbiyalashi lozim. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar. hikoya, matn, tinglash, so'zlash, tahlil qilish, qiyoslash, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi, kreativlik, obrazli harakat, interfaol metod, kreativ topshirig'i.

СТРАТЕГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ СЛОВА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ, ОСНОВАННЫХ НА ТВОРЧЕСКОМ ПОДХОДЕ

Аннотация. Сегодня вопросам образования уделяется широкое внимание. Поэтому развитие словарного запаса, воспитание звуковой культуры речи, формирование грамматической правильности неразрывно связаны с овладением приемами создания беглой речи. должен воспитывать нравственные качества. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова. рассказ, текст, аудирование, говорение, анализ, сравнение, дидактический инструмент, образовательная эффективность, творчество, образное движение, интерактивный метод, творческое задание.

VOCABULARY TEACHING STRATEGIES IN PRIMARY CLASS READING LITERACY LESSONS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Annotation. Today, educational issues are being widely paid attention to. Therefore, the development of the vocabulary, the education of the sound culture of speech, the formation of grammatical correctness are inextricably linked with the mastering of the methods of creating a fluent speech. should educate moral characteristics. We will talk about this in this article.

Keywords. story, text, listening, speaking, analysis, comparison, didactic tool, educational efficiency, creativity, figurative movement, interactive method, creative assignment.

Kirish. Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to'g'risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifalardan biridir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllangan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi bo'ladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash

56 jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Enshteyn "Tasavvur-bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Metodlar. Buyuk allomamiz ta'kidlaganlaridek, kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra hayotning dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar, mustahkam o'rnatib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Lug'atni boyitish va faollashtirishda uni sifat jihatdan takomillashtirish dastlabki o'ringa chiqadi. Bu antonim (o'tkir-o'tmas, achchiq-chuchuk), sinonim (o'tkir - uchi o'tkirlangan, o'tkir), ko'p ma'nolilik (o'tkir pichoq, achchiq qalampir, achchiq til) kabi hodisalarni tushunish va ularni nutqda faol qo'llashga taalluqlidir. Bolalar narsalar, tabiat hodisalari, insonlar qilmishlarini ko'rib, ulardagi har xillik va umumiylikni aniqlashni hamda ularning ma'nosi qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, taqqoslashlar, aniq fe'llar, tashbehlar yordamida nutqda aks ettirishni o'rganadilar. So'z birikmasiga sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarga so'zlarning ko'p ma'noga egaligini tushuntiradi. Narsalarning funksiyalarini taqqoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar (hayvonlar, idish-tovoqlar, transport) shakllanadi.

Lug'at ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish);

Lug'at ishlari bolalarning atrof-dagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashg'ulotlar (sifatlar, xususiyatlar, o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish);

Umumlashtirishlar jarayonida lug'at ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo'lgan mashg'ulotlar. Nutqiy va lug'atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash). Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil etilishi, bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko'rgazmalilikning mavjudligi.

Bolalarning ona tilida avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuqlarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg'or she'riy va estetik ideallariga sodiqligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'laqonli quruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir.

Lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog'lovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bog'lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bog'liq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bog'liq bo'ladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, to'g'rirog'i, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki tilning o'zini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab yetishga qaratilgan muloqotga muhtoj bo'ladi. Lug'at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashg'ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Natijalar. Nutq o'stirish – shaxs tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon. O'z mohiyatiga ko'ra nutq o'stirish shaxs, jumladan, o'quvchi tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini amaliy o'zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so'zlash malakalariga ega bo'lishini ta'minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish, zarur o'rinlarda kerakli choralarni ko'rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra "nutq o'stirish" tushunchasi ko'p holatlarda "nutqni rivojlantirish" tushunchasiga muqobil ("o'rnini almashtiruvchi", "javob bo'luvchi") sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa, rus tilida olib borilgan tadqiqotlar, mazkur tilda yaratilgan adabiyotlarda maktabgacha tarbiyalanuvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'y-fikrlari, kechinmalari (ichki nutq)ni tashqi nutqqa aylantirish xususida so'z yuritilganda tayanch tushuncha sifatida "nutqni

rivojlantirish" qabul qilingan. Ayni o'rinda "ichki nutq" tushunshasining mohiyatini ham yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir: ishki nutq – til yordamida ifoda etilmagan va yozilmagan fikriy nutq bo'lib, u shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan murojaatini ifodalaydi. Har qanday nutqda bo'lgani kabi ichki nutq ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Xususan, ichki nutq "aniq grammatik shaklga ega bo'lmay, u tushunsha – alohida ma'noli so'zlar hamda yaxlit iboralar yordamida shakllanadi". Nutqni rivojlantirishning didaktik talablari, unga nisbatan metodik yondashuvlar xususida so'z yuritishdan avval "rivojlantirish" atamasi aynan qanday holatni yoritishga xizmat qilishini anglab olish navbatdagi amaliy harakat uchun yo'nalishni to'g'ri belgilashga imkon beradi.

Munozara. Boshlang'ich sinf o'qish kitoblarining yangi nashrlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularda badiiy asarlarning ko'plab berilishidir. Jumladan, mustaqillik, yurt qahramonlari ulug', allomalar, hamda ma'naviyatimizning o'zanlarini belgilovchi dolzarb mavzudagi ijtimoiy ahamiyatga ega maqolalar yosh avlod dunyoqarashida o'ziga xos burilish yasaydi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot janrlaridan: ertak, hikoya, masal va shu kabilarni boshlang'ich sinflarda o'qitish keng tadqiq qilingan. Ammo badiiy asarning tadqiq qilish masalalari – ayrim metodik maqolalarni hisobga olmaganida – haligacha o'rganilgan emas.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida borliq haqida tushuncha va tasavvur hosil qilishda, ularni konkret faktlar, ayrim voqea-hodisalar bilan tanishtirishda badiiy asarlar juda ahamiyatlidir. Badiiy asarlar orqali o'quvchilarda vatanimiz tabiati, tarixiy sanalar, ijtimoiy hayot, fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari kengaytiriladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi.

Badiiy asarlarni o'qitishdan maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatdagi o'zgarishlar, voqea hodisalar, kishilar mehnati haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish, ijtimoiy siyosiy hayotda ro'y berayotgan voqealar haqidagi tushunchalarini shakllantirishdir.

Yuqoridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun darslarda o'rganilayotgan badiiy asardagi turli terminlarni izohlash, uning ma'nosini tushuntirishga e'tibor berish lozim. Badiiy maqolalar til jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ularda maxsus atamalar ko'plab uchraydi, so'zlar aniq ishlatiladi, gaplar puxta tuziladi. Bundan tashqari badiiy asarlar vositasida o'quvchilar uchun butunlay yangi bilimlar beriladi, ba'zi voqea-hodisalar konkretlashtiriladi.

4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligida Hidoyat Olimovning "Kitob va boyluk" matni berilgan. Ushbu matn tuzilish jihatdan badiiy asar sanaladi. Bu xiladagi matnlar o'quvchilarga nafaqat kitobni tanishtiradi, balki ularda kitobga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Bunday darslarda ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin. Kitob mavzudagi badiiy asarlarni unga mos rasmlar bilan bo'glab o'qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning kitobni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi.

Xulosa. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Enshteynning maktabdan haydalishi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Demak, lug'at o'rgatish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yo'l topa olishi vaholanki bola shaxsiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'qish savodxonligi ta'limida matn ustida ishlashda o'qib va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish avval tayyor matnlar bilan tanishtirish va kichik matnlar tuzdirish orqali o'quvchilarda matn yaratish ko'nikmalarini takomillashtiradi. Matn ustida ishlashda o'qib va tinglab tushunish o'quvchilarni matn turlari va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish, matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy ma'lumotlar berish, matn mazmunini to'ldirish, kengaytirish, matnni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o'zgartirish, matnda mavjud

- 58 mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash jarayonlarida "Reyder", "Esse", "Fikrlar savati", "SMS-xabarnoma" kabi interfaol metodlardan foydalanib ko'rildi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarni tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent-2021.
2. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2016 yil.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Bayoz, 2022. - 304 b.
5. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - Т. 3. - №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. - 2022. - Т. 2. - №. 3. - С. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.
8. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 406-409.
9. Курбанова, III. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология—целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 6. - С. 1030-1035.
11. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
12. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 1-5
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 5-9.
15. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va
16. O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 215-219.
17. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 181-184.
18. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 28(28).
19. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 61-66.

**Buxoro davlat pedagogika instituti muassisligidagi
 "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
 xalqaro ilmiy-metodik jurnali
 barcha ta'lim muassasalarini
 hamkorlikka chorlaydi.**

**"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz
 tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
 Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
 Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
 Р/с 20208000104858465002
 Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
 ИНН 301637939 ОКНХ 87100

Мақолаларни қабул қилиш учун
<https://t.me/alijonhr>, <https://t.me/AzizaHusenovaSh>

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2024-yil 9-son (17) 2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan. Нашр индекси: 1397	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 07.01.2027 Bosmaxonaga topshirish vaqti 10.01.2025 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 32,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №40. Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
---	--	--